«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
8 aprel 2009 yilda.
O'zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
20.09.2008 yildagi № 28-sonli bayonnoma.

BROMOLON (DONLI YOLG'ON YEM) PREPARATINI SINANTROP KEMIRUVCHILARGA QARSHI KURASHISH UCHUN QO'LLANISHI BO'YICHA YO'RIQNOMA

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 «Bromolon» (bromolonum)
1.2 Don asosidagi foydalanish uchun tayyor yolg'on yem, tarkibida faol ta'sir etuvchi modda sifatida 0,005% (50 mg/kg) bromadiolon mavjud. Tashqi ko'rinishiga ko'ra butun donlar yoki butun va maydalangan donning aralashmasidan iborat. Doni qizil yoki boshqa yorqin rangga bo'yalgan, bu kishilarga ushbu vositani haqiqiy dondan uzil-kesil farqlash imkonini beradi.
1.3 Preparat polimer qoplamadan paketlarga 0,1-1,0 kg dan va ko'p qatlamli polimer qoplarga 1,0-10,0 kg dan qadoqlangan holda ishlab chiqariladi. Polimer qoplamadan paketlar transport o'ramiga – g'ijim karton yashiklarga yoki kraft qog'oz qoplarga solinadi. Vazni 5 kg gacha bo'lgan paketlar termik kichrayib tortiladigan qoplamaga o'raladi. Har bir iste'mol o'ramining yorlig'ida, boshqa ma'lumotlardan tashqari, majburiy tartibda «Ehtiyot bo'ling – Zahar» yozuvi kiritiladi.
1.4 Preparatni alohida ehtiyotlik bilan (A ro'yxati – qulflanadigan shkaf ichida), zavod o'ramida, quruq, salqin joyda, bolalar va hayvonlar zinhor yeta olmaydigan joyda, oziq-ovqat mahsulotlaridan va yemdan alohida saqlash, hamda uning kelishi va sarflanishini qayd etish lozim.
Preparatning ko'rsatilgan saqlash sharoitlariga rioya qilingan holda yaroqlilik muddati – ishlab chiqarilgan sanasidan 1 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1 Bromadiolon antikoagulyant zaharli moddalariga kiradi. Uning ta'sir etish mexanizmi jigarning protrombin hosil qilishi jarayonining buzilishiga asoslangan, bu qon ivishini pasaytiradi va qon tomirlari butunligini shikastlaydi.
2.2 Bromadiolon, kemiruvchilarning oshqozon-ichak tizimiga tushganda, sekin eriydi va qonga so'riladi, shuning uchun zaharlanish sekin (3-4 kundan keyin) rivojlanadi, lekin juda kichik dozalari ham ta'sir ko'rsatadi. Kulrang kalamushlar uchun o'rtacha o'limga olib keluvchi dozasi bir marta kiritilganda 2,0 mg/kg ni tashkil etadi. Oksikumarinning hosila moddalari inson organizmiga ta'siri darajasiga ko'ra 1-xavflilik sinfiga kiradi (yuqori xavfli moddalar). Bundan tashqari, bromadiolon kuchli ifodalangan kumulyativ xususiyatiga ega, bu uni organizmga muntazam kiritilganda xavfliligini oshiradi.

3. PREPARATNI QO'LLASH TARTIBI

3.1 Bromolon molboqarlik fermalarida va boshqa veterinariya nazorati ob'ektlarida kalamushlarga va sichqonlarga qarshi kurashish uchun qo'llanadi.
3.2 Yolg'on yem kalamushlar uchun 100 g va sichqonlar uchun 25 g vaznida, qoshiq bilan kemiruvchilarning inlari va teshiklari yonida, lekin bolalar va uy hayvonlari yeta olmaydigan joylarda qo'yib chiqiladi. Yuqorida ko'rsatilgan ehtiyot choralariga rioya qilib, «Bromolon» yemini paketlar ichida, ularni ochmay turib qo'yib chiqish mumkin. Yolg'on yemni faqat kemiruvchilar kira oladigan qilib jihozlangan maxsus yashiklarda joylashtirish yaxshiroq bo'ladi. Har bir 100 m2 da, ob'ektda kemiruvchilar yashashining miqdoriga qarab, 1 dan 5 tagacha yolg'on yem nuqtalari joylashtiriladi. Yolg'on yem yeyilib borishi bilan, u umuman yeyilmay qolguncha, qo'shib boriladi. Kalamushlar va sichqonlarning o'limi yolg'on yem yeyilishi paytidan boshlab 4-5 kun o'tganda boshlanadi.
Vaqt-vaqti bilan kemiruvchilar keladigan ob'ektlarda, profilaktika qirish choralarini o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Bu maqsadda ozgina yolg'on yem kemiruvchilar ehtimoliy paydo bo'lishi mumkin bo'lgan joylarda vaqt-vaqti bilan qo'yib chiqiladi.

4. EHTIYOT CHORALARI

4.1 Preparat bilan ishlash kamida 18 yosh bo'lgan, qon kasalliklariga uchramagan va maxsus yo'l-yo'riqdan o'tgan shaxslarga ruxsat etiladi.
4.2 «Bromolon» bilan barcha amallar maxsus kiyimda (changdan himoyalovchi xalat yoki kombinezon, bosh kiyimi), rezina qo'lqop, respiratorlarda o'tkaziladi. Preparatning ko'zga va og'izga tegishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Preparat bilan ishlaganda chekish, ichish va ovqat yeyish taqiqlanadi. Ish tugaganidan keyin yuzni va qo'lini sovun va iliq suv bilan yuvib, og'zini suv bilan chayish lozim. Homilador va sut emizadigan ayollar «Bromolon» bilan ishlashi qat'iy taqiqlanadi.
4.3 O'lgan kemiruvchilarni qisqich, xokandoz bilan yig'ib olib, yondiriladi yoki kamida 0,5 m chuqurlikdagi o'raga, avvaldan uni 10% xlorli ohak eritmasi bilan ishlov bergan holda, ko'mib qo'yiladi.
4.4 Bunday belgilar paydo bo'lganda, darhol shifokorni chaqirish va organizmni zaharni ketkazish choralarini ko'rish kerak (iliq suv ichirish va qusish chorasini ko'rish, faollashtirilgan ko'mir berish). «Bromolon» teriga tekkanda, shikastlangan joylarni sovun va suv bilan yaxshilab yuvish kerak. Ko'zga tekkanda – ko'p miqdorda suv bilan yuvish lozim. Preparat bilan zaharlanganda, zaharni kesuvchi modda sifatida K vitamini belgilanadi.
4.5 Homilador va sut emizadigan ayollar «Bromolon» bilan ishlashi qat'iy taqiqlanadi.

5. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

5.1 Preparat mazkur Yo'riqnomaning talablariga mos kelmagan holda, uni qo'llash to'xtatiladi, bu haqda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga quyidagi manzil bo'yicha bildiriladi: 700178, Toshkent shahri, A.Yunusov ko'chasi, 1a-uy. Tel./faks: 228-76-14, 229-30- 47. E-mail: uzgnkl@rambler.ru. Ayni paytda laboratoriya manziliga laboratoriya bilan avvaldan kelishilgan miqdorda preparatning ochilmagan o'ramlari, va preparatning Yo'riqnoma talablariga mos kelmasligi xususiyatlarining batafsil ta'rifi yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Faks: +998 (66) 234 1134
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TS 00483044-13:2013

biveco®
biveco.com